Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari .....	637
<i>Fayzullayev Shohrux</i>	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm .....	641
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi .....	645
<i>G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna</i>	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish .....	651
<i>Isoqov Shohruh Turabek o'g'li</i>	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages .....	654
<i>Jumanova Sabrina Vaydullo kizi</i>	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni .....	659
<i>Mamatxanova Nargiza Toxirovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari .....	663
<i>N. Sh. Abdullayeva, F. R.Valiyeva, S. S. Raximova</i>	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari .....	667
<i>O. A. Shodiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
<i>Y. R. Azzamov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari .....	676
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	679
<i>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
<i>Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna</i>	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования .....	688
<i>Анварова Хуснора, Isoxоnova Aziza</i>	
Толерантность в мультикультурном обществе .....	692
<i>Бекбосынова З. К.</i>	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности .....	696
<i>Исмаилова Мадинабону</i>	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений .....	701
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i>	
Raqamli ta'lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri .....	704
<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish .....	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi .....	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 <i>Aslanova Malohat Akramovna</i>
	Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 <i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>
	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish ..... 721 <i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>
	Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ..... 725 <i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>
	Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 <i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>
	Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari ..... 733 <i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>
	Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 <i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>
	Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 <i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>
	Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari ..... 752 <i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>
	Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar ..... 757 <i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati ..... 762 <i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>
	Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 <i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>
	Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) ..... 770 <i>Багирова Паринисо Бобировна</i>
	Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 <i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>
	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili ..... 780 <i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>
	Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari ..... 784 <i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>
	Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 <i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>
	Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 <i>M. B. Pulatova</i>
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili ..... 796 <i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>
	Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 <i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli .....	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<i>Tolipova Shohista Qudrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi .....	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari .....	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish .....	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде .....	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari.....	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar .....	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish.....	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari .....	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari.....	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash .....	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<i>Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</i>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<i>Yusupova Sitara Ashuraliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi va ona tili darslariga zamonaviy yondashuvlar.....	1002
<i>G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna</i>	
O'quvchilarning ijodiy ish faoliyati malakalarni shakllantirishga mos masalalarni tanlash metodlari.....	1005
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi</i>	
Mashq va topshiriqlar tizimi – fonetik ta'lim samaradorligini oshirish tizimi.....	1011
<i>Ganiyeva Dildora Sagdullayevna</i>	
Psixologik treninglarning uslubiy muammolari: nazariy va amaliy tahlil.....	1015
<i>Gulchehra Utamurodova Narbayevna</i>	
O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanish imkoniyatlari.....	1018
<i>Islamova Karima Turdiyevna</i>	
Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro xamkorlik.....	1023
<i>Karimova Gulchehra</i>	
Ta'lim boshqaruvida "yumshoq kuch" (soft skills): rahbar ayollarning psixologik va pedagogik mahorati...	1026
<i>Nomozova Roziya Omonovna</i>	
Ta'lim jarayonida psixologik muhitning ahamiyati.....	1029
<i>Qarshiboyeva Dildora Burliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorligi.....	1033
<i>Qo'chqorov Mirzavali</i>	
Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati.....	1036
<i>Qodirova Malikaxon Kaxramonovna</i>	
Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning sifat faoliyatini baholovchi tizim yaratish.....	1040
<i>Sharipova Umeda Tolibjonovna</i>	

# BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QISH SAVODXONLIGI VA ONA TILI DARSLARIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o'qish savodxonligi va ona tili darslarida o'quvchilarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish yo'llari va uning o'ziga xos jihatlari haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy yondashuvlar, ko'nikma, o'qish savodxonligi, model, natija, o'qitish, samarali tizim, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik.

**Abstract:** The article presents ideas about the ways of teaching reading literacy and native language lessons based on modern approaches and their specific aspects.

**Key words:** modern approaches, skills, reading literacy, model, result, teaching, effective system, critical thinking, creativity.

**Аннотация:** В статье представлены идеи о методах обучения грамоте чтения и уроках родного языка, основанные на современных подходах, и их специфические аспекты.

**Ключевые слова:** современные подходы, навыки, грамотность чтения, модель, результат, обучение, эффективная система, критическое мышление, креативность.

## KIRISH

Zamonaviy yondashuv – bu ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik usullar majmuidir. Mazkur yondashuv an'anaviy "o'qituvchi markazli" modeldan farqli ravishda ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirishni nazarda tutadi, ya'ni dars jarayonida o'quvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

Zamonaviy yondashuvning asosiy belgilaridan biri – o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda fikr bildiradi, taqqoslaydi, tahlil qiladi, muammolarga yechim topadi hamda o'z xulosalarini dalillashga o'rganadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kompyuter, planshet, multimedia vositalari, taqdimotlar, video va audio materiallardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida, xususan, o'qish savodxonligi va ona tili fanlarini o'qitishda topshiriqlarni kichik, mantiqan bog'langan vazifalar tizimi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Interaktiv metodlar ushbu fanlarda kreativ yondashuv asosida strategik maqsadlarni belgilash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchi o'qish savodxonligi va ona tili darslari uchun mos faollashtiruvchi usullarni tanlashi va ularni o'rinli qo'llashi zarur.

Mazkur fanlar doirasida qo'llaniladigan metod va topshiriqlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash hamda mustaqil mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muammoli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar asosida o'quvchilar faol va mustaqil tarzda yechim izlaydi. Natijada ular o'z bilimlariga tayangan holda tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Zamonaviy topshiriqlar shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga asoslanib, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish va ularning individual xususiyatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida real vaziyatlar mantiqini aks ettirish hamda o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.



Shuningdek, boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishda topshiriqlarni kichik vazifalarga ajratish, masalalarni yechish algoritmlarini shakllantirish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish, mantiqiy va izchil matnlar tuzish, maqsadlarni to'g'ri belgilash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarda strategik fikrlash, muammolarni hal etish va turli ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar har bir sinf kesimida ona tili darsliklaridagi mavzular va topshiriqlar mazmunida o'z ifodasini topgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yangi avlod darsliklari 4K modeli asoslanganligi hamda spiralsimon tarzda o'quvchilarni oddiydan murakkabga tomon o'rganishni nazarda tutgan holda tuzilganligi, hayotiy ko'nikmalrni egallab borishlariga qaratilganligi bilan bugungi ta'limning xalqaro talablariga mos tarzda yaratilganligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirishning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu – moddiy voqeelikdagi muhim jihatlarni ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishga o'rgatishdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchi oddiy hodisalar haqida fikr yuritishda faqat tashqi belgilar bilan cheklanib qolmay, balki ularning mohiyatini anglashga intiladi. U kundalik hayotiy voqealardan umumiy xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Bunday jarayonda o'quvchilarda ko'plab savollar yuzaga keladi va ular kattalarga murojaat qilish orqali javob izlaydi. Bu holat bolalarda tafakkur jarayonining faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Inson tafakkuri hali to'liq o'rganilmagan va keng imkoniyatlarga ega murakkab jarayon hisoblanadi.

Kreativ tafakkur murakkab bilish faoliyati bo'lib, u izchil va o'zaro bog'langan bosqichlardan tashkil topadi. Ushbu jarayon boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarda savollarning yuzaga kelishi, amaliy vazifalarning aniqlanishi hamda muammolarni hal qilish yoki savollarga javob topish jarayonlari orqali namoyon bo'ladi. Bu esa dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchi oldiga qo'yilgan aniq vazifalar orqali ifodalanadi. To'g'ri qo'yilgan vazifa o'zida maqsadni ham mujassamlashtiradi va o'quvchining faol fikrlashini rag'batlantiradi.

Kreativ tafakkurning muhim komponentlari savollarga javob izlash, muammoni hal etish yo'llari, usullari va vositalarini aniqlash, ularni tanlash hamda amaliyotda qo'llashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi o'quv jarayonini zamonaviy usullar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan dasturlar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni egallashiga xizmat qiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish orqali o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy ta'lim 4K modeli asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu model doirasida hamkorlikda ishlash, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash va kreativlik kabi kompetensiyalar shakllantiriladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metod va topshiriqlar aynan shu ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilarda ijodkorlik rivojlanadi, o'quv faoliyati faollashadi va bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun sharoit yaratiladi.

O'qish savodxonligi darslarida matnni tushunish, tahlil qilish va mazmunini anglash ko'nikmalari shakllantirilsa, ona tili darslarida tilni ongli o'zlashtirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda grafik va imloviy malakalarni egallashga e'tibor qaratiladi. Ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlardan o'rinli foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga o'rgatib, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy usullar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning fanlarni integratsiyalashgan holda o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayon o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni kuchaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy xalqaro talablarga mos innovatsiyalar va ilg'or tajribalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Yangi avlod darsliklari XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular 4K kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv dasturlari va darsliklarni amaliyotga joriy etish o'qituvchi va o'quvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy o'qitish jarayonida ta'limiy o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi, ularda mustaqil va oqilona fikrlashni shakllantiradi.

Ta'limiy o'yinlardan darsning turli bosqichlarida foydalanish, xususan, yangi mavzuni tushuntirish yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ta'limiy o'yinlar va metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida muayyan sifatlarni shakllantirishda samarali vosita bo'lib, o'qituvchiga mavzuni sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish imkonini beradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchi o'quvchilarda fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solishda amaliyot har qanday bilishning negizi ekanligi haqidagi qarashlarga tayanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga rahbarlik qiladi. U o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda o'rganilayotgan materialni ongli ravishda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning materialni idrok etishi, uni chuqur tushunishi va puxta esda saqlab qolishiga ham alohida e'tibor qaratadi.

Ta'limning rivojlantiruvchi maqsadi shaxsning aqliy kamoloti, bilish qobiliyati, o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchilarda mustaqil ishlashga bo'lgan qobiliyat shakllanadi, ularni fikrlashga o'rgatish imkoniyati yuzaga keladi. Shu jihatdan ta'lim jarayonida tafakkurni rivojlantirish o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda darsliklar bilan ishlash ham muhim o'rin tutadi. Bu jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, savol va topshiriqlarni tahlil qilish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish orqali mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada XXI asr ko'nikmalariga ega, faol va ijodkor shaxs shakllanadi.

Mazkur yondashuvni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori kasbiy mahoratni, uzluksiz o'z ustida ishlashni, ilmiy izlanish olib borishni va ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim standartlari (Boshlang'ich ta'lim DTS, 2023)
2. Boshlang'ich ta'lim o'qish kitoblari (1–4 – sinf) – Respublika ta'lim markazi
3. O. Toshboyeva, H. Qo'ziyev "Savodxonlik darslari metodikasi"
4. Sh. Inomova "Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari metodikasi"
5. S. Matnazarov "O'qish savodxonligi asoslari"
6. Umarov A. S., Raximov A. K., Mirzayeva N. A. Dars sifatining tahlili – ta'lim taraqqiyoti mezoni // "Ta'lim va rivojlanish tahlili" onlayn ilmiy jurnali. 2022.
7. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari// Samarali maktab va hamkorlik madaniyati // II modul. – T., 2010

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.